


## **XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI**

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.


### **Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni**

*(1 iyul holatiga ko'ra, ming birlikda)*



**Korxona va tashkilotlar  
faoliyatining umumiyl tavsifi**

**Korxona va tashkilotlar soni**  
(2024 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Yuridik shaxs:**

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.


**Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni**

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2024 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Korxona va tashlilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

*mas'uliyati cheklangan jamiyat,  
ming birlik*



*xususiy korxona,  
ming birlik*





**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi.

**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

#### Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1 iyul holatiga ko'ra)



2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020-yilning mos davriga (25 181 ta) nisbatan 4 185 taga ko'payganligini quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 6 406 tadan 8 738 taga (o'sish 2 332 taga), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 2 672 tadan 3 055 taga (o'sish 383 taga), sanoat – 3 834 tadan 3 794 taga (o'sish 40 taga).

## Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiyl tavsifi

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(*iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1 iyul holatiga ko‘ra, birlikda*)



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2024-yil yanvar-iyun holatiga ko‘ra yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2 637 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 2 627 ta;
- yirik korxonalar 10 ta.


Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- iyul holatiga 25 899 taga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 118,0 foizni tashkil etdi (3 952 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 33,7 foiz, sanoat – 14,6 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 11,6 foiz, qurilish – 8,9 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 8,2 foiz, tashish va saqlash – 9,0 foiz, axborot va aloqa – 1,2 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 2,7 foiz, boshqa turlari – 10,0 foiz.

## Korxona va tashlilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni**

(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2024 yil 1 iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

**Aksiyadorlik jamiyatি:**



Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo‘lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyatni hisoblanadi aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyatini bilan bog‘liq zarar uchun o‘zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.


Aksiyalar haqini batamom to‘lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo‘yicha, o‘zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to‘lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyatni ekanligi o‘z ifodasini topishi kerak.


**Korxona va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

## *Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati*

### **Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni** (yanvar-iyun oylarida, ming birlikda)




### **Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni** (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)



## **Korxona va tashlilotlar faoliyatining umumiy tavsifi**

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning  
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi  
(2024 yil yanvar-iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi)**




2024 yilning yanvar-iyun oylarida 2 690 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 2 183 ta, xususiy korxonalar 92 ta, oilaviy korxonalar 361 ta va boshqalar 54 tani tashkil etdi.


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri mevabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan  
korxona va tashkilotlar tarkibi  
(1 iyul holatiga ko'ra)**




**Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(2024 yil 1 iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



2024- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 3 794 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 90,1 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko‘payishining asosiy omili (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishslash) sanoatida 89,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 93,9 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash 96,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,9 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash 89,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 2,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 108,2 %) o‘sishidir.

**Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(1 iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



2024 yil 1 iyul holatiga ko‘ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 336 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 90,2 foizni tashkil etdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili bino va inshootlar qurishda o‘tgan yilga nisbatan 81,5 foizga (jami qurilishdagi ulushi 50,8 foiz), fuqarolik ob’ektlarini qurish 116,6 foizga (jami qurilishdagi ulushi 22,0 foiz), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 91,7 foizga (jami qurilishdagi ulushi 27,2 foiz) tashkil etdi.

**Korxona va tashlilotlar faoliyatining umumiy tavsiyi**

**Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**

(1 iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

2024 yil 1 iyul holatiga ko‘ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 8 738 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 94,5 foizni tashkil etdi. Jami savdo korxonalari va tashkilotlari soni ko‘payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o‘tgan yilga nisbatan 92,3 foizga (jami savdodagi ulushi 61,6 foiz), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o‘tgan yilga nisbatan 95,9 foizga (jami savdodagi ulushi 26,4 foiz), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta‘mirlashning o‘tgan yilga nisbatan 103,8 foizga (jami savdodagi ulushi 12,0 foiz) tashkil etdi.

**Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**

(2024 yil 1 iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

- Sog‘lijni saqlash sohasidagi faoliyat

757



- Yashash uchun joy bilan ta‘minlangan holda parvarishlash

18



- Yashash uchun joy bilan ta‘minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

9




**Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**

(2024 yil 1 iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

2024- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 784 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 99,6 % ga tashkil etdi. Jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar 96,4 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 82,5 %), yashash bo‘yicha xizmatlarning 100,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 17,5 %) tashkil etdi.

**Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi**

**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni  
(1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)**



2024 yil 1 iyul holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni 326 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,6 foizni tashkil qildi. Jami axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino video-filmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 111,1 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,0 foiz), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 84,3 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,2 foiz), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 96,3 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 16,0 foiz), dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar 100,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 0,9 foiz), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 91,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 40,5 foiz), telekommunikatsiya xizmatlarining 119,4 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 26,4 foiz) o'sgan.

**Korxona va tashlilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Oilaviy korxonalar soni**  
(1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2024- yilning 1-iyul holatiga ko'ra 4 192 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 177 taga yoki 104,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 970 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 69 taga yoki 97,7 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 361 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 48 taga yoki 115,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni**  
(1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2024 yil 1 iyul holatiga ko'ra 28 142 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 968 taga yoki 107,5 foizga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 20 153 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 644 ga yoki 96,9 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2024 yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 183 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 338 taga yoki 86,6 foizga oshgan.




**Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiyl tavsifi**

## *Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati*

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘lmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rshimiz mumkin.


### **Buxoro viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2024 yil 1 iyul holatiga ko‘ra, birlikda)**




Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- iyul holatiga ko‘ra 514 tani tashkil etib, ulardan 317 tasi yoki 61,7 % faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 94 taga yoki 122,4 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 51 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

### **Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)**



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni**  
(2024 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**  
(ijtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
<b>Jami</b>	<b>291</b>	<b>322</b>	<b>375</b>	<b>299</b>	<b>317</b>
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	20	30	33	18	18
sanoat	124	129	136	112	103
qurilish	28	34	33	24	27
savdo	61	71	102	92	106
tashish va saqlash	6	5	8	9	13
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	23	23	25	17	21
axborot va aloqa	1	1	5	5	3
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	7	8	5	4
boshqa turlar	22	22	25	17	22

**Korxona va tashkilotlar  
faoliyatining umumiyl tavsifi**


*Buxoro viloyatining  
ijtimoiy-iqtisodiy holati*

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni  
(2024 yil 1 iyul holatiga ko‘ra, birlikda)**

	Jami	<i>shundan:</i>	
		<i>qo‘shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>317</b>	<b>137</b>	<b>180</b>
Buxoro shahri	166	62	104
Kogon shahri	14	7	7
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	26	17	9
Vobkent	7	5	2
Jondor	8	5	3
Kogon	23	12	11
Olot	16	1	15
Peshko‘	6	2	4
Romitan	13	7	6
Shofirkon	11	7	4
Qorako‘l	12	5	7
Qorovulbozor	5	1	4
G‘ijduvon	10	6	4

**Korxona va tashlilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**


**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
*(2024 yil 1 iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)*




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 166 ta (umumi miqdoridagi ulushi 52,4 %), Kogon tumani 23 ta (7,3 %), Olot tumani 16 tani (5,0 %), Kogon shahar 14 ta (4,4 %), Buxoro tumani 26 ta (8,2 %), hamda Romitan tumanlarida 13 tani (4,1 %) tashkil etadi.

**Korxona va tashkilotlar  
faoliyatining umumiylaysi tavsifi**

**Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni**  
(2024 yil 1 iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



**Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni**  
(2024 yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)



2024- yilning yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (7,8 %), G‘ijduvon (15,0 %), Buxoro (6,6 %), Romitan (8,6 %), Peshko‘ (2,5 %), Kogon (3,9 %), Jondor (6,4 %), Vobkent (8,0 %), Shofirkon (14,4 %), Qorako‘l (3,9 %), Olot (16,9 %), Qorovulbozor (0,8 %) tumanlari va Kogon shahar (5,3 %), ulushiga tegishli.

### Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot ma’lumotnomasi tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyat tugatilgan yuridik shaxslardan tashkari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Faoliyat ko‘rsatmayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan, moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg‘armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo‘lganligi haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan-** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Faoliyati tugatilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan yuridik shaxslarning davlat reyestriga yuridik shaxsni tugatilganligi to‘grisidagi yozuv kiritilgandan so‘ng bu haqda davlat statistika organlariga ma’lumot taqdim etilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Yuridik shaxslarning yangi tashkil etilganlik darajasi** – ma’lum bir davr oralig‘ida tashkil etilgan yuridik shaxslarning jami faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagisi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

## Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiyl tavsifi